Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

RAXSHONA AHMEDOVA HIKOYALARIDA INSON RUHIYATI TASVIRI VA SINTAKTIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Moxira Abduxalil qizi Munavvarova*
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti, Is'hoqxon Ibrat ijod maktabi ona tili va adabiyot o'qituvchisi
✉ mohiramunavvarova2@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy o'zbek nasrining iste'dodli vakillaridan biri Raxshona Ahmedova hikoyalarining sintaktik xususiyatlari lingvopoetik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Ijodkorning "Noma'lum ayol" va "Meni kechir, Kumiko!" hikoyalari tahlili asosida sodda uslub yordamida insoniy kechinmalar, empatiya va vijdon kolliziyasining badiiy ifodasi yoritib berilgan. Tahlil jarayonida parsellyatsiya, ellipsis, ritorik so'roq gaplar, dialogik strukturalar va muallif idiostilining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar

lingvopoetika, poetik sintaksis, idiostil, parsellyatsiya, ellipsis, ritorik gap, dialogik struktura, empatiya, realizm.

DOI: 10.5281/zenodo.21743378

KIRISH

Bugungi kunda nasriy matnlar sintaktik qurilishi o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun badiiy matnda ekspressivlikni ta'minlashda sintaktik figuralardan keng foydalanilmoqda. Tilshunos A.Abdullayev ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli kommunikatsiyada ham, subyektiv munosabatda ham o'zining asl mohiyatini ko'rsata olishini ilmiy izlanishlarida qayd etgan. [1, 6-b] Professor sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq kabi uslubiy figuralar fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Qolaversa, yozuvchining o'ziga xos idiostili, estetik g'oyalari, dunyoqarashi va madaniy tajribasi bevosita nasriy matnning uslubiy strukturasida o'z aksini topadi. Bularning barchasi nasriy asarlarni lingvistika, adabiyotshunoslik va semiotik tahlil doirasida tizimli o'rganish zaruratini yuzaga keltirib, ushbu yo'nalishdagi izlanishlar dolzarbligini belgilaydi.

Zamonaviy o'zbek nasrida inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini, ko'zga tashlanmas ichki kechinmalarini sodda til uslubida real ifodalab estetik ta'sir eta olish Raxshona Ahmedova ijodiga xos xususiyatdir. Ijodkor jamiyatdagi qadrsizlik, mehrsizlik holatlarini sokin, ammo ta'sirchan uslubda so'zlarga yangi konnotativ ma'nolarni yuklash orqali ko'rsatadi. Uning asarlarida lingvopoetik yuk leksik sathdan ko'ra sintaktik sathda namoyon bo'ladi. Badiiy matnda murakkab leksik birliklardan foydalanmay, oddiy hayotiy voqelik va sodda til birliklari orqali yuksak estetik hamda emotsional ta'sir hosil qiladi. Adiba qahramonlarining qalb kechinmalari, afsus-nadomatlari, vijdon yuklari, parsellyatsiya, ellipsis, ritorik so'roq gaplar, dialogik strukturalar va real hayot mohirona tasvirlangan.

ASOSIY QISM

Badiiy matnda sintaktik birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish jahon va milliy tilshunoslikda keng o'rganilib kelinayotgan nazariy yo'nalishlardan biridir. Badiiy matnda og'zaki nutqning tabiiyligi va ixcham sintaktik qurilmalardan foydalanish qahramon ruhiyatini o'quvchiga sodda, ammo estetik

ta’sir etishda muhim vositasi hisoblanadi. Tilshunos L.Shevchuk ta’kidlaganidek, *“Og‘zaki nutq va yozma nutq o‘rtasidagi asosiy tafovut, eng avvalo, gap qurilishida namoyon bo‘ladi. Og‘zaki nutq yozma nutqqa qaraganda ancha sodda sintaktik strukturaga ega bo‘lib, uning qisqa va aniq gaplardan tashkil topishi fikrning tushunarli hamda ravon bo‘lishini ta’minlaydi*”. [2, 26-27-b.] Raxshona Ahmedova hikoyalarida ham xuddi shunday ixcham va sodda sintaktik konstruksiyalar orqali murakkab insoniy kechinmalar va psixologik holat aks etgan.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o‘rganishda uning sintaktik xususiyatlari haqida olim M.Yo‘ldoshev so‘z yuritib, uslubiy vositalarini umumlashtirib quyidagicha guruhlaydi: 1.Sintaktik parallelizm. 2.Emotsional gap. 3.Ritorik so‘roq gap. 4.Inversiya. 5. Ellipsis. 6.Gradatsiya. 7.Antiteza. 8.Farqlash. 9.O‘xshatish. [3, 68-b.] Darhaqiqat, sintaktik tuzilish emotsional-ekspressivlikda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tilshunos T.H.Asadov tilshunoslikda sintaktik ekspressiv vositalar sifatida yuqorida sanab o‘tilgan hodisalar bilan birga ellipsis, antiellipsis, kesish, pozitsionleksik takror, parsellyatsiya, segmentatsiya, sintaktik kengaytiruvchilar bilan kelgan leksik takror, monologik nutqdagi savol-javob konstruksiyalari, bog‘lovchisizlikning ayrim turlari, so‘z birikmasi komponentini almashtirish,sintaktik parallelizm, undov konstruksiyalar, nominativ gaplar zanjiri, so‘zni maxsus ekspressiv-stilistik joylashtirish kabilarni qayd etgan. [4, 95-b.]

Badiiy matn tahlili va poetik nutqning lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligida doimiy e’tiborda bo‘lib kelgan. Xususan, matnni lingvistik va sintaktik tahlil qilishning nazariy-amaliy asoslarini T.Qudratov va T.Nafasov [5, 71-177-b.], badiiy matnda tasviriylik va sintaktik figuralarning o‘rnini J.Lapasov [6, 40-b.], poetik nutqning leksik-stilistik qatlamlarini esa B.Umurqulov [7, 11-b.], S.Sultonsaidova va O‘.Sharipova [8, 61-64-b.]kabi taniqli tilshunoslarimiz o‘z tadqiqotlarida atroflicha yoritib berganlar. N.Mahmudov va X.Abdurahmonovlarning [9] badiiy nutqda so‘zning estetik vazifasi va konnotativ tabiati haqidagi ilmiy qarashlari ahamiyatlidir. Raxshona Ahmedova hikoyalaridagi sintaktik birliklar va ruhiyat tasvirini tahlil qilishda ushbu nazariy qarashlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining o‘ziga xos xususiyatlari haqida Sh.M.Istamova quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatilishini qayd etadi: 1.Psixologizmning kuchayishi. 2.Simvolizm va ramziy obrazlar. 3.Peysaj vositalarining poetik funksiyalari. 4.Milliy ruh va tarixiy-estetik ongning uyg‘unligi. [10, 155-b.] R.ahmedova hikoyalarida kuzatiladigan parsellyatsiya, ellipsis, ritorik so‘roq va dialoglardagi qisqa jumlalar, alohida ajratilgan bir tarkibli gaplar qahramonning ruhiy isyonlari, ichki kechinmalar dinamikasini namoyon qiladi.

Tadqiqot obyekti R.Ahmedovaning “Noma’lum ayol” [11, 174-179-b.] va “Meni kechir, Kumiko!” [11, 180-188] hikoyalari matni tashkil etdi. Mazkur hikoyalarni lingvopoetik tahlil, stilistik-sintaktik tahlil, kognitiv-psixolingvistik tahlil va tavsifiy-struktur tahlil metodlari asosida tadqiq etiladi.

Qahramonlar iztirobli psixologik holatlarida jumlalar qisqa-qisqa sodda gap yoki bir bo‘lak (parsellyatsiya) shaklida beriladi*: Onam emas, men kun sanayman. Shunchalar yaxshi ko‘ramanmi? Meni onam tomon tortib turgan nima u? Tushunmayman.* [11, 176-b.] Mazkur jumlada muallif bitta murakkab jumlada emas, parchalab ichki dialogni his-tuyg‘ular tug‘yonini ifodalagan. Ritorik so‘roq gap esa mehr-muhabbat ifodasini yanada kuchli emotsional ohangda kitobxonga estetik ta’sir etishiga xizmat qilgan. Keyingi parchada qalbi unsiz yig‘lagan personaj tashqi ko‘rinishi parsellyatsiya va ellipsis sintaktik hodisalarining uzviy sintezi orqali ochib berilgan: *“Darvoza oldida onam ilhaq kutib turardi. Paypoqchan, yalangoyoq... Boshidagi ro‘moli silliqib sal nariga tushib qolgan, tushganini-da sezmagan... U meni ko‘rib qotib qoldi, biroq hech nima demadi. Ko‘zlarida yosh ko‘rganday bo‘ldim”.* [11, 177-b.] Xususan, *“Paypoqchan, yalangoyoq...”* hamda *“tushganini-da sezmagan...”* qurilmalari alohida ajratilib (parsellyatsiya qilinib), pauza va ko‘p nuqtalar vositasida tushirib qoldirilgan kesimlar (ellipsis) bilan ta’minlangan. Bu sintaktik usul onaning ruhiy hayajoni, farzand xavotirida kuchli xavotiri va ruhiy iztirobining kulminatsion nuqtasini tasvirlashda muhim badiiy-estetik vazifani bajaradi.

“Ko‘rsatuv tugay, deydi. Bolalar qorni to‘yib, ko‘chaga chiqishadi. Lash-lushlarini mashinalariga ortishadi. Ona ikkita tuguncha ko‘tarib chiqadi, kelolmagan bolalariga ovqat berib yuboradi. Ona bolalari bilan qo‘l silkib xayrlasharkan, ajin bosgan, bug‘doyrang, qadoq qo‘llari bilan mijjalarini siypalaydi. Kameraga qarab turib „sog‘inaman-da“, deydi mung‘ayibgina.” [11, 177-b.] Mazkur parchada muallif harakat-

larni ketma-ketligini qisqa, sodda yoyiq gaplar zanjiri vositasida foydalangan. Adiba tasvirni murakkab sintaktik tuzilmalar bilan og‘irlashtirmaydi, aksincha, holatni aniq aks ettiruvchi detallashtirish (*“ajin bosgan, bug‘doyrang, qadoq qo‘llari”*, *“mung‘ayibgina”*) birliklarida onaning samimiy, beg‘ubor va ma’sum ruhiy olamini kitobxon ko‘z oldida gavdalantiradi. Pok onalik mehri sodda sintaktik shakllar va *“sog‘inaman-da”* kabi xalqona, emotsional-ekspressiv nutq vositasida ifodalashi asarning psixologik ta’sir kuchini va badiiy-estetik qimmatini yanada oshirgan.

Badiiy matnda aytilgan so‘zlardan ko‘ra ifoda etilmay qolgan jumla (nuqtalar) kuchli pafosni ifodalaydi. Emotsional ta’sirchanlik “Meni kechir, Kumiko!” hikoyasida Kumikoning xatida lirik qahramonning ruhiy tushkunlikka tushgan holatidagi ellipsis (nuqtalar va aytilmagan so‘zlar) orqali yuzaga chiqadi: *“...Kiyoshini tushlarimda ko‘ryapman... Yoningda yaqinlaring bo‘lmagach, hayotga qiziqishing qolmas ekan. Men olg‘a yurishga undaydigan yo‘lchi yulduzimni yo‘qotib qo‘ydim...”* [11, 187-b.] Ko‘p nuqtalar va uzuk-yuluq fikrlar qahramonning so‘z bilan ayta olmagan ichki dardi, yolg‘izligini ifodalash uchun xizmat qilgan.

R.Ahmedova hikoyalaridagi dialoglar faqat fikr almashish uchun emas, balki personajlar xarakterlari zidligi va dunyoqarashlarining o‘ziga xosligini ham namoyon etadi. “Noma’lum ayol” hikoyasida lirik qahramon va uning dugonasi o‘rtasidagi suhbatda ikki xil dunyoqarash – empatiya (hamdardlik) va beparvolik qarama-qarshi qo‘yiladi:

– Shuncha bola tug‘ib katta qilsang-u… – deyman o‘zimni zo‘rg‘a bosishga urinib.

– Ne asabiylashasan, shunaqalar ham bor, – deydi dugonam xotirjam.

– O‘zing o‘ylab ko‘r, axir, ona oldidagi... – hamon achchig‘imdan tusholmayman”. [11, 175-b.] Ushbu jumlada lirik qahramonning ruhiy holati fikr uzilishlari o‘zgalar dardiga befarq nazar sola olmasligini ifoda etib, estetik ta’sirchanlikni kuchaytirgan.

“Meni kechir, Kumiko!” hikoyasidagi qisqa dialoglar qahramonlar o‘rtasidagi samimiylik va personajlar ruhiy olamidagi ma’naviy tafovutlarni ochib beruvchi muhim lingvopoetik vositadir:

– Onang gaplashib turasanmi?

– Kunda-kunora.

– Kunora?

– U ko‘zlarini boricha ochib, hayron bo‘lardi. – Nimalar haqida gaplashasan?

– O‘zimiz haqimizda...

– Zerikib ketmaysanmi?

– Nimadan? So‘zlashishdanmi? Yo‘q, Iloji bo‘lsa, har kuni gaplashardim. [11, 181-b.] Keltirilgan dialogik nutq parchasida F.Karimova ta’kidlaganidek, antropotsentrik nazariyaga ko‘ra dialogik matnlarda ham milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon etuvchi shaxs omilini kuzatishimiz mumkin. [12, 121-b.] Ota-ona bilan muaomala qilishda g‘arb va sharq madaniyatida farqlanishlar kuzatiladi. Dialog so‘zlashuv nutqini namoyon etganligi uchun qahramonlarning ruhiy-ijtimoiy, milliy-madaniy, intellektual va insoniy qadriyatlari qay darajada shakllanganini bilib olish mumkin. Bundan tashqari, L.Raupova [13, 93-b.]tahlillari shuni ko‘rsatadiki, dialogik diskursda milliy mental xususiyatlar bilan birga qahramonning jinsi, mansabi ta’sir etmay qolmaydi. Yuqoridagi parchada o‘smir davridagi qizlarning suhbatlarida hissiyotlarning ochiq namoyon bo‘lishi lingvopsixologik jihatdan juda aniq va ishonchli aks ettirilgan.

Ritorik so‘roq va undov gaplar R.Ahmedova idiostilida kitobxon shuuriga murojaat qilish orqali vijdon so‘rog‘i vazifasini ham bajaradi: *“…uchrashuvga kelmagan o‘g‘illarni izlab yo‘lga tushishadi. Topib boradi, katta-katta keng-u mo‘l uylar… - Nahot bir burchagiga onang sig‘maydi? – deyman yana jahlim chiqib. Bu gal dugonam indamaydi”.* [11, 178-b.] O‘zbek qizining milliy shuur va axloqiy qadriyatlar doirasidagi hissiy munosabati ushbu ritorik so‘roq gap (*“Nahot bir burchagiga onang sig‘maydi?”*) orqali ochiq namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda ritorik so‘roq shunchaki ma’lumot olish uchun emas, balki so‘zlovchining ichki isyoni, ma’naviy og‘riq va kitobxonni mushohadaga chorlovchi kuchli emotsional ta’sir vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Dugonasining “indamasligi” esa u haq ekanligini sukut bilan tasdiqlaydi.

Navbatdagi misolda vijdon yuki va ichki og‘riq iqrorlik diskursida oshkor etiladi: *“Men aybdor edim. Qalbimdan otilib chiqqan bir so‘z tilimga ko‘chdi: ‘Meni kechir, Kumiko!”* [11, 185-b.] Uzoq vaqt davomida ichga yutilgan aybdorlik hissi lirik qahramonning emotsional iqrori orqali yuzaga chiqadi. Muallif un-

dov murojaatidan unumli foydalanib, matnning lingvopoetik ta’sirchanligini oshirgan. Natijada ishtirokchining ma’naviy-ruhiy holatlari kitobxon shuuriga kuchli psixologik ta’sir o‘tkazadi.

XULOSA

Ijodkor uslubida sintaktik tuzilishning sodda va xalqona bo‘lishi kitobxon shuurida empatiya (hamdardlik hissi)ni shakllantirib, badiiy asar ruhiga kirishishida muhim vosita hisoblanadi. Raxshona Ahmedovaning “Noma’lum ayol” va “Meni kechir, Kumiko!” hikoyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, muallifning badiiy mahorati murakkab va yasama sintaktik qurilmalardan emas, balki sodda va emotsional birliklardan mahorat bilan foydalanganligi samimiy muhitni shakllantiradi. Adiba idiostilida parsellyatsiya va ellipsis – ruhiy titroq va iztirob pauzalarini yaratuvchi; dialoglar – loqaydlik va empatiya to‘qnashuvini ko‘rsatuvchi; ritorik gaplar esa kitobxonni vijdoniy muloqotga chorlovchi yetakchi lingvopoetik dominantlar sifatida xizmat qilgan. Qolaversa, R.Ahmedova hikoyalaridagi muloqot, ijtimoiy holatlar tasvirida milliy va umuminsoniy qadriyatlar to‘qnashuvini ko‘rsatuvchi linvokulturologik farqlanishlar ham alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. –Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1987. 6-b.
2. Shevchuk L. A Stylistic Study of Selected Short Stories by Mixail Zoshchenko: Master’s thesis. – Columbus: The Ohio State University, 1966. – 94 p.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 124 б.
4. Asadov T.H. Matn tilshunosligi: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2023. – 155 b.
5. Қудратов Т., Нафасов Т. Лингвистик таҳлил: Филология факультетлари талабалари учун қўлланма / А.Ҳожиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 180 б.
6. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 86 б.
7. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.
8. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2009. – 112 b.
9. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан. 1981. – 59 б.
10. Истамова Ш.М. Замонавий ўзбек ҳикоячилигининг ўзига хос хусусиятлари // Экономика и социум. – 2025. – № 7 (134)-1. – Б. 153-156.
11. Ahmedova R. Tushunarsiz sevgi izhori (Hikoyalar to‘plami). – Toshkent: Read book nashriyoti, 2023. – B. 174-179; 180-188.
12. Каримова Ф. Диалогик нутқнинг миллий-маданий хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 120–123.
13. Раупова Л. Диалогик дискурснинг миллий ментал белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. – № 5. – Б. 91-93.